

Insoniyat: asliyat va irsiyatning badiiy talqini

Umida RASULOVA¹

Abstrakt

Ijodkorlar, soʻz sohirleri zamonaviy nasrga yangi tasvir, ifoda olib kirdilar, hayotni turli rakurslardan turib tasvirlay boshladilar. Ular mavzularni toʻldirib, boyitib boradilar. Ijtimoiy hayotdagi dolzarb muammolarni ijodiy yondashuv asosida kitobxonga yetkazishga harakat qiladilar. Adiblarning badiiy sohadagi izlanishlari, mumtoz anʼanalar va folklordan unumli foydalanishi, dunyo adabiyotidan oʻrganishlari oʻz samarasini bermoqda. Dunyo adabiyotshunosligining ilmiy-nazariy talablariga javob beradigan nasr namunalari oʻzbek va qirgʻiz adabiyotining yaqin tarixidagi mulkiga aylandi. Bu asarlar poetikasida turli yosh, kasb, dunyoqarashga mansub xarakterlar yaratildi. Ular orasida bolalaru kattalar, ishchi-yu xizmatchilar, tentag-u darveshlar, ismsiz qahramon-u gʻayritabiiy goʻdaklar ham muayyan funksiyani bajarishga yoʻnaltirildi. Muhimi, asarda insonning mohiyatini teran anglatish, tiynatidagi fazilat-u illatlarni har tomonlama kashf etish tamoyili chuqurlashdi. Roman kompozitsiyasida qahramon ongosti jarayonini isyon-u kufr kontrastida aniq badiiy talqin etishga eʼtibor ortdi, tashqi faoliyatdan botindagi dard-u iztirobni his ettirishga ragʻbat kuchaydi.

Kalit soʻzlar: *roman, poetika, obraz, ruhiyat, talqin, genetika, ifoda.*

Kirish

Insonning ijtimoiy hayot sahnasidagi ziddiyatli turmush tarzini aks ettirish, zamonning sinoatini real tasvirlash muhim jarayon. Adiblar romanning poetik qatlamini toʻyintirish borasida izlanishlar olib boradilar. Ijod onlarida tarixiy haqiqatni roʻy-rost tasvirlash; mashhur shoh, shoir, olim, arbobning badiiy obrazini yoritishda solnoma, memuarlardagi aniq maʼlumotdan foydalanish; tarixdagi muhim maʼnaviy, axloqiy muammoni yoritish talab etiladi. Maʼlumki, insoniyat oʻtmishida ziddiyatli, chigal vaziyatlar koʻp boʻlgan, bunday holatda fojeiylik omilini inson qismatidagi ojizlik illatiga monand teran anglatish; moziydagi tub burilish onlarini

¹ *Rasulova Umida Yoʻldosh qizi* – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: rasulovaumida12@gmail.com

ORCID 0000-9762-4407

Iqtibos uchun: Rasulova, U. 2024. "Insoniyat: asliyat va irsiyatning badiiy talqini." *Oʻzbekiston: til va madaniyat*. 1(2): 33-45

xronotop sathiga uyg'unlashtirishga e'tibor qaratiladi. Yozuvchi o'tmishdagi turmushni badiiy qaytadan suratlantirishda aniq obyektiv mazmunni asrash, tarixiy hamda arxaik so'zdan o'rinli foydalanish; madaniy an'analarning xalq, millat tafakkuriga ta'sirini ko'rsatishga erishmog'i darkor. Bu kompozitsion sath, voqea kontekstida tarixiy faktlarni saralab, tajriba asosida to'g'ri, xolis xulosa chiqarishga imkon yaratadi.

Asosiy qism

Insoniyat tafakkur hamda taxayyyul olamini nozik ilg'agan, tuyg'ular oqimini his qilgan faylasuf adib Chingiz Aytmatov asarlarida olamu odam uyg'unligi, jamiyatdagi axloqiy, estetik qarashlar talqiniga e'tibor beriladi. Adib dunyodagi turli irq-u dinga mansub kishilarning ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayotini puxta o'rganish, kuzatish asnosida global muammolarni badiiy talqin etishga urg'u beradi. Har bir inson uchun vatan, oila, jamiyat silsilasini anglatish, asriy qadriyatning kishi tiynatiga singishi jarayoni yodda tutiladi. Olam-u odam muvozanatining muqimligi azaliy tartibotning ko'zgusidir. Inson yaralishidagi muddaoni anglab tiriklikning mohiyatiga rioya etishi dushvor. Adib shu asos, muhim halqalarning imonu e'tiqoddan oziqlanishini yoritishga intiladi. "Kassandra tamg'asi" romanida uch olam: samo, yer, ummon hodisotlari aro uyg'unlik kompozitsion sathni mustahkamlaydi.

Asarning ilk jumlasida avval so'zning mavjud bo'lgani, abadiy syujetdagi insonning yaralishi xususida mujda keltiriladi. Inson siyratidagi mutanosiblikning buzilishi ma'naviy dunyosidagi sokinlik, xotirjamlikka rahna solib, g'azab, nafrat tuyg'ularini parvarishlaydi. Olamdagi muvozanat ila odamdagi mezonlar muvofiqligi yoxud ayroligi muqaddas tushunchalar talqinida reallashadi. Ezgulik, adolat hissi, salmog'i inson-u jonzotni befarq qoldirmaydi. Kabir borliqning sag'ir ulushi ma'lum nizomlar doirasida harakatlanadi. Shu bois qabohat, takabburlik jazoga yo'naltirib, bandani xor-u zabun aylaydi.

Ma'lumki, Alloh taolo odamni tuproqdan yaratishni ixtiyor etgan. Xokisor yerdan oliy mavjudot bino bo'lgan. Unga nabotot-u hayvonot ne'matidan bahramandlik nasib bo'lgan. Inson yer, tuproq misoli halim bo'lib, sharaflı maqomni yoddan chiqarmasligi darkor. Yer ustida tiriklik sururini his etib, foniy dunyo nayrangidan holi bo'lgani durust. Roman kompozitsiyasidagi dialog-u monolog inson hamda tabiatning yaxlitligini anglatishga yo'naltiriladi. Yer ustida turli toifaga mansub kishilar tiriklik gashtini suradi. Ular

o'y-xayoli, sa'y-harakati doim ona zamin tomonidan his etiladi. Inson mol-u davlatga ruju qo'yib halovatdan ayrilishini o'ylamaydi. Tinch- totuv hayotni qadrlamay, mudom nafs iskanjasiga qorishib boradi. Yer yuziday keng makon ham insonga torlik qilib, mudom jaholatga chulg'anadi. Adibning: "Inson qalbi-jumboq to'la quticha. Hayotiy yetishmovchiliklar, mahrumiyatlar natijasida vujudga kelgan qasoskorlik tuyg'usi va qahr-g'azab ko'ngildagi olijanoblik kurtaklarini yanchib tashlamasligiga kim kafolat beradi?"-deya qayg'urishi bejiz emas [Aytmatov, Shoxonov. 1998, 137]

Roman matnidagi turli motivlar boqiylik hamda foniylilik borasidagi ahkomlarga ishora beradi. Insoniyat tarixidagi jaholat va yovuzlikning negizi xususidagi qarashlar ijtimoiy tuzumdagi nosozlikdan voqif etadi. Sobiq mafkuraning ilmiy taraqqiyot borasidagi siyosati zimmida noyob qadriyatdan mahrumlik maqsad qilinadi. Inson tiynatidagi oliy ruh imon bilan quvvatlansa osiylik, gumrohlikdan yiroq bo'ladi. Hayot va o'lim mohiyatini, yaralish muddaosini to'g'ri anglash jaholatga yo'lochmaydi. Chingiz Aytmatov Filofey timsolida sag'irlik, mehrdan mosuvollikning hosilasini yoritib boradi. Bemehr onaning norasida go'dagini mehribonlik uyi ostonasida tashlab ketishi ma'naviy tanazzul debochasi ekani ma'lum bo'ladi. 1942-yil sovuq izg'irinda yetimxonaga tashlab ketilgan go'dak Andrey ulg'ayib, insoniyat kushandasiga aylanadi. Urushning vayronkor siyosati millionlab insonni qurol bilan nobud aylagan bo'lsa, uning asorati bois sag'ir qolgan nasl ulg'ayib endi irsiyatni batamom o'zgartirishga kirishadi.

Romanda: "Inson qurol ishlab chiqarish uchun tug'ilishi kerak emas" [Aytmatov 1995, 109] shiori negizida achchiq haqiqatga urg'u beriladi. Kashfiyot, ixtiro shaklidagi qurol aynan insonni jismonan, ma'nan mahv etadi. Adib tibbiyotning aks ta'siri, ya'ni malham emas, og'u, zahar bo'lib kishi fitratida yovuzlik urug'ini urchitishini bosqichma-bosqich yoritib boradi. Shifokor Andrey Krilsov hatto o'z zurriyodini nobud etishi (abort), ayolini baxtsiz qilib, vujudining parchasini badnom aylashida ham undagi johillik yuzaga chiqadi. Olim shifokordagi hissizlik, tuyg'usizlik illati insoniyat naslini asliyatdan mahrum aylash, sun'iy lashtirishga erishishga qaratiladi. Mehru oqibatdan bebahra kimsaning siyratidagi qahri, ahli insonga nafrati tibbiyot sohasidagi sinovlarida ayonlashib boradi.

Sho'ro hukumatining mahfiy topshirig'iga muvofiq ilmiy sinovlarni o'tkazish mexanizmi ishlab chiqiladi. Unga ko'ra shifokor Andrey Krilsov mahbus ayollarda bu tajribani o'tkazishga kirishadi.

Islom dinimizda insonning Alloh tomonidan yaratilishi, unga ruh ato etilishi ilohiy hikmatini rad etish gunohi azim, shakkoklik sanaladi. Genetika sohasidagi yutuq sifatida qaralgan holatga barham berishda Runi ismli ayolning jasorati shifokorning mudroq vijdonini bezovta aylaydi. Dialogda qaltis vaziyatda adolatni dadil aytib, nafs izmidagi takabbur shifokorga saboq bergan mahkumaning qat'iyati, tavakkali reallashadi. Xatoni anglash, undan qaytishga intilish holati o'zga obraz ta'siri ostida amalga oshiriladi. Uning kabir gunohi zimnida naslning qadriyatdan mahrum etilishi masalasi yuzaga chiqadi.

Ilmiy kashfiyot aslida gumrohlik, osiylik ekani olimga tutqun ayol tomonidan uqtiriladi. Haqiqat, adolatdan hayiqmagan mahbus Runining o'ldirilishi, mudroq vijdon uyg'onishiga ko'mak beradi. Tavqi la'nat insoniyatning kelajagini barbod aylashi, ruhidagi itoatni isyonga yetaklashi syujet voqealarini taranglashtiradi. Shifokorning bu ixtirodan voz kechib o'zga makon samoni tanlab, ismini Filofeyga o'zgartirib, yorug' olamga kelishdan voz kechayotgan kassandra embrion holatidan g'ayritabiiy tamg'a (zondaj nur) vositasida kishilarni voqif etadi. Ayni shu jarayonda fazo, zamin, ummondagi tartibsizlik ortib boradi. Dunyoning turli hududida unga nisbatan e'tiroz paydo bo'lishi, siyosiy kuchlar tomonidan munosabat bildirilishi avlod kelajagi borasidagi xavotirni kuchaytiradi.

Inson jismidagi muzlayotgan qon harakatdan, intilishdan mahrum bo'lib, o'zgacha hayotni ixtiyor aylashiga turtki beradi. Filofey ochiq kosmosga chiqib o'limni afzal biladi. Turg'unlikning biqiq muhitida boshqaruvchanlikka intilgan kimsalar bilan ularning atrofidagi jabrlanganlar qismati parallel tasvirlanadi. Asarda obrazni turli rakursdan yoritish inson siyratini teranroq taftish etish imkonini orttiradi. Obraz mohiyatida jamiyatga xos xarakterli xususiyatni jamlash, tutqunlikni tan olmaslik, mutelikka ko'nikuvchanlik holati ustuvorlik qiladi. Asosan, retrospektiv syujet voqeaning o'tmish hozir tarzida berilishini ta'minlaydi. "Iksrod"-noma'lum jins yaratishga da'vo qilgan osiy olim shifokor o'z tajribasi hosilasidan endi xavotirlana boshlaydi, boisi nojins kelajakning xavfli kushandasiga aylangan edi. Yer yuzini yadro bilan kunpayakun qilish ilinjida yaratilgan noma'lum jinslar boqiylik olamining intihosiga sabab bo'lardi. Bunday qabihlik mahdudlar uchun oddiy hol edi.

Davr taqozosi bilan qiyofa o'zgarishi, tuslanishi muayyan qahramonlar orqali ochib boriladi. E'tiqodsizligi bois hayoti xaosga aylangan osiy bandaning umr falsafasi o'tmish (qiziqish), hozir (moslashish), kelajak (taftish qilish) tarzida namoyon bo'ladi. U

yer yuzida “ixtiro” qilib, samo kosmosga chiqib, Filofey bo‘lib, turli millat-u elatni ogohlikka da’vat etar ekan, ularning loqaydligi, bee’tiborligining shohidi bo‘ladi. Ommaviy madaniyatning turli xurujidan bezgan so‘qir qalblarning bunday holatga kelishi tabiiy edi.

Asar strukturasiidagi :”Insoniyat vujudidagi mislsiz zulm, shuur-u qalbidagi gumrohlik genetik kodga ta’sir qilib, uni tanazzulga muhtalo qilishi, borliqdagi jami mavjudotni barbod aylashi” mulohaza mohiyatni oydinlashtiradi [Aytmatov. 1995, 161]. Surat-u siyratdan mosuvo olomon, sun’iy obyekt tarixiy taraqqiyotning mahsuli o’laroq tiriklik diyorini mahv etib, zalolatga sabab bo‘ladi. Ilm kushandasi olimlar otalik va onalik maqomini, farzandlik burchini unuttirish asnosida irsiyatni yo‘qotishga intiladi.

Romandagi voqealar rivojida inson osiyligini his qilayotgan boyqush-u kitlarning samo-yu ummondagi faryodi tinglanadi. Yigirmaga yaqin kitlar to’dasi to’lqinlardan hayiqmay shaxd bilan suzishida xavotirning salmog’i ortadi. Jonzot-u qushlar kishi shakkokligi, kibrlining butun olam muvozanatini izdan chiqarishidan azoblanadi. Tuyg’u quvvati ila olam qalbini tinglagan jonzotlar inson shuuri ila idrok qilmagan asrorni his etadilar. Ma’naviy tanazzul, siyosiy zo’ravonlik yosh yigit qizlarni isyonga yetaklab, maydonda o’zini yoqishi lavhasida bo’rtib ko’rinadi. Yer kurrasini qizdirayotgan bitta quyoshning ikkita bo’lishi, gunohkor bandalarga bemisl jazo tarzida anglashiladi.

Muallif quyosh ramzi vositasida gunohning badali og’ir ekani, olov alangasi ila osiylarni jizg’anak etishiga ishora beradi. Jaholat sarbonlari ta’siridagi olomon imon halovatini tuymagani bois haqiqatdan yiroqlashadi. Chingiz Aytmatov romanlarida manqurt toifasidagilar qismati turli rakursda yoritiladi. Ular vijdon yo’rig’iga rioya etmay adashib, o’zligidan voz kechgan basirlar edi. Ziyolilar orasida ham manqurtlikka muhtalo kimsalar ilm asl mahzanini singdira olmagan. Taraqqiyot insonga erkinlik, imkoniyat bergani holda undagi imon-u e’tiqodni parchalay boshladi.

“Jamiki kulfatlarning asl sababchisi-inson ma’naviyati qashshoqlashadi, ochko’zlik, xudosizlik oxir oqibat tiriklikni adoyi tamom qiladi. Inson tabiatga qarshi bosh ko’taradi! Hamma balo mana shunda!”, -deydi Chingiz Aytmatov [Aytmatov, Shoxonov. 1998, 269].

Badiiy adabiyot odamzot, hayvonot, nabotot dunyosini uyg’unlikda talqin etadi. Ular uzviyligi olam mohiyatini teran anglash, dunyo mehvarini his etish saodatini nasib aylaydi. Insoniyat

xilqat asrorini uqishga ishtiyoqmand. Borliqdagi to'rt unsur: suv, havo, tuproq, o't kabi ne'matlar tiriklik mazmunini ifodalaydi. Ular o'rtasidagi biologik aloqalarga putur yetsa, kurrayi zamin muvozanati buziladi. Tabiatning asil holati o'zgarsa, odamzotning jismoniy hamda ruhiy quvvati sustlashadi. Shu bois ahli donishlar tafakkur qudrati ila mikro olamdan makro olamgacha zehn solganlar. Xalq e'tiqodi bilan bog'liq an'analarni kelajak avlodga yetkazishga e'tiborli bo'lganlar.

Inson qismatini badiiy talqin etishda poetik ifoda turfaligi muallif konsepsiyasini aniq yoritadi. Hayot hamda xayol qorishiqqligidagi voqelik sirli, g'ayritabiiylik sathini kengaytiradi. Ba'zan makon-u zamoni mavhum sarhadlar miqyosi majoziy usulda uyushtiriladi. Bunda tabiatdagi ranglar mutanosibligi, ohanglar jarangi, o'simliklar ifori manzarani tiniqlashtiradi. Asar badiiyatini ta'minlashda ma'no serjilo, serqatlamliligi poetik yaxlitlikni yuzaga keltiradi

Inson ilohiy hikmatdan yiroqlashib, oliy maslakdan voz kechib, ta'qiqlangan, la'natlangan yaratiqqa intilar ekan, yo'lsizlikka muhtalo bo'lganini kech anglaydi. Bu halqa yanglig' uning naslini ham domiga tortadi. Ijodkor odamzotning koinotdagi oliy nasabidan mahrumiyatini ifodalashda makoniy hududni cheklamaydi. Muallif voqea rivojida rahmoniy hamda shaytoniy kuchlar o'rtasidagi azaliy, abadiy ziddiyatni taranglashtirib boradi.

Odamzot o'zga jonzotlardan oliy ruhi bilan ajralib turadi, u yer yuzida to'g'rilik, halollik mezonini asray olishi ila qadrlanib boradi. Umr atalmish sinov maydoni poydevori mehr, adolatdan mosuvo tiklansa, bari niyatlar sarobga aylanadi. Asardagi siyosiy arbob-u, olim-u toliblarning hayot maslagi vaqt silsilasida turli sinoatdan o'tishi, dinsizlik, fosiqlik, xiyonat yuki naslga badbaxtlikni muhrlashi ayonlashib boradi.

Dunyo ibtidosidan intihosiga qadar odam imon-u e'tiqodiga iblis tajovuz etadi. Hayot poydevorini nafsga mahkumlikdan tiklagan bemehr ona go'dak kelajagini badnom qiladi. Yovuzlik qurboni yetim bola, yorug' olamga kelishga isyon qilgan embrionning, afsuski, axloqiy, ma'naviy aqoidlardan xoliligi muqarrar. Vaqtning shiddatli oqimida inson surati-yu tiynati o'zgarib, o'zligi, nasl-nasabi borasidagi inja tuyg'ular sarobga aylanmoqda. Romandagi qahramonlar tasvirida ruhiyatdagi tebranishlar ifodalanib, qabih niyatlar hosilasi vujudni qamrayotgani asoslanadi.

Badiiy ijod olami, iste'dod va mahorat, san'atkor uslubi asarlar zimnidagi ma'nolar mahzanini uqishda ayonlashib boradi.

Badiiy asar yozib bo'lingach, kitobxon hukmiga havola etiladi. Matnni o'qish, uqish jarayonida kitobxon qabul qiluvchi, o'zlashtiruvchiga aylanadi. Badiiy matnni mutolaa qilish, ma'nolar mahzanini idrok aylash kitob muhibidan ma'lum tayyorgarlikni taqozo etadi. U aql-u zakovati, hissiyot olami bilan asar dunyosi asrorini kashf etib boradi. Kitobxon voqealar silsilasini kuzatadi, adabiy qahramon qiyofasi, portretini tasavvur qiladi, ruhiyat iqlimini his etib boradi.

“San'atkor o'zini hayajonlantirgan g'oya va obrazlarini ifodalash istagini ularning hayotiyligiga, estetik ahamiyatiga, kitobxonni ishontirishga bo'lgan intilishidan ajratib qaramaydi, barcha bayon usullari, lirik iboralari, dramatik konflikt yo'nalishi kitobxonni qiziqtirishini ham nazarda tutadi”, - deydi adabiyotshunos M.Xrapchenko [Храпченко. 1970, 108].

Asarda inson hurligi, ozodligi qaltis vaziyat, sharoitda, ba'zan mansab, amal doirasida aslini saqlashi, qiyofasini namoyon etishida kuzatiladi. Ijtimoiy, siyosiy muhitda haqiqatni aytish, adolatni targ'ib qilish ma'naviy jasorat sanaladi. Nosirlar mavzuni yoritishda xarakter dunyoqarashidagi odilona hukmni inobatga olib, asar ichki mantig'iga muvofiq voqelikni rivojlantirib boradi

Yozuvchi Isajon Sulton “Boqiy darbadar” asari bilan kitobxonni mubohasaga chorlaydi. Asar tuzilmasi uch zamon: moziy, bugun, kelajakni qamrab oladi. Romanda tarix, falsafa, estetika, tibbiyot sohalari aro mushtaraklik voqealar zanjirini payvandlab boradi. Makon tasviridagi turfalik, ya'ni Misr, Gobi sahrosi, Haybar shahri, Amerika qit'asi, Atlantika ummoni yanglig' xronotop insoniyatni turli sinoatdan olib o'tadi. Romanda Qur'oni Karimdagi ilohiy axborotdan badiiy niyatni maromiga yetkazishda foydalanilgan. Xususan, Iso alayhissalom Muborak kishining dunyoga kelib, qavmlarga ilohiy mujda yetkazgani bois basir notavonlar zulmiga uchragani syujet qatlamini teranlashtiradi. Hazratning bashorati, etikdo'zning darbadarlik qismati foniylilik hamda boqiylik xususidagi tasavvurni aniqlashtiradi.

Asar matnidagi “Sening qiladigan ishing hech narsa, hech narsa, faqat hech narsa, deyildi unga” qavli yolg'iz etikdo'zga emas, balki imondan mosuvo minglab “basir” kimsalarga taalluqli. Bu hukm intihoga qadar davom etishi lo'lilar karvonboshisi besamar sargardonligi lavhasida ham bo'rtib ko'rinadi. Darbadarning Muso va Hizr alayhisalomlarni uchratish ilinjida dengiz sohilida kezinishi, Hiro g'oridagi vahiy ne'mati, Qahf g'oridagi yigitlarning uch yuz yillik holati ilohiy Kitobdagi nihon ma'no kalitini topishga ishora beradi. Adib roman matni tarkibiga avliyo hikoyasidagi voqelikni

singdirishida ofiyat, rizq, ajr borasidagi tasavvur kengayadi. Butunni qismlarda nozik anglatish maqsadida bir soʻz yoxud iboralar (parchinlanish\\Iso alayhissalom; moʻgʻul qilichi\\ Najmiddin Kubro\\; dor yogʻochi\\Boborahim Mashrab) turli davrda yashagan aziz siymolar sulukini yoritishga xizmat qiladi.

Inson takomili markazida sohasining eng bilimdon genetiklari nihoyat vatan, din, millat tuygʻularidan mahrum gʻayritabiiy mavjudot sunʼiy odam yaratishga muvaffaq boʻladilar. Zamonaviy manqurt yangligʻ bu odam maxsus harbiy hukm ijrochisi boʻlishi maqsad qilinadi. Asar kompozitsiyasidagi tub burilish zakovat sohibi olimlarni lol qoldiradi. Roman poetikasida sunʼiy “barhayot” odamning elektron xat shaklidagi murojaati asos, negizni muxtasar ifodalaydi: “Men bu murojaatimni olamdagi barcha tafakkur qiluvchi jonzotlarga yoʻllamoqdaman. Avvalo, ushbu tevarakning, samolarning, tabiatning va oxir oqibat fikrlovchi inson naslining oʻz oʻzidan paydo boʻlib qolishi ehtimoldan gʻoyatda uzoq narsadir. Bu olamni albatta k i m d i r yaratgandir? Shu bois, bu makonni, avvalo, Uni izlab topish va butun olam yaratilishining sabablarini Oʻzidan soʻrash uchun tark etmoqdaman” [Sulton 2011, 37].

Asarda bugungi kunda tibbiyotning muhim va murakkab tarmogʻi genetika asrori magʻzini anglashga urgʻu berilar ekan, uning zimnidagi nozik masala tegrasida sunʼiy inson yaralishi asorati, halokati boʻy koʻrsatadi. Inson takomili markazidagi dunyo genetik olimlari tafakkur va taxayyul olami, ilmiy salohiyati baland boʻlsa ham, oliy nizomni idrok etmagani bois kashfiyoti sarobga aylanadi. Yaratish faqat Allohga xosligini unutgan ahli ziyoliga muqarrar jazo roʻbaroʻ qilinadi. Romanda Gobi sahrosidagi zulumat Qurʼondagi Abraxa va fillarning nobud boʻlish manzarasini xotira puchmogʻida tiklaydi. Mukammal harbiy texnikalar ogʻir boʻlsa ham yengil qum zarralari boʻron hosil qilib ularni oʻz girdobida nobud qiladi. Atlantika ummonidan uchayotgan Boing samolyotini ham dahshatli boʻron parchalashida muqarrar hukmning xotimasi idrok etiladi. Insonning isyoni, kibri uni dunyo va oxirat azob-u uqubatiga muhtalo etishi, faqat imoni butun bandagina halovatga erishishi kitobxonga saboq boʻladi.

“Boqiy darbadar” romanida samum qaynoq shamoli sahro-dagi kishilarga halokat keltiradi. Atlantika ummoni ustiga shamol falokat bulutini haydab keladi. Borliqdagi tartibotni izdan chiqarish niyatidagi soʻqir kimsalar hayoti sarobga oʻxshaydi, ular quyosh-u oy, shamol-u bulutlarning vayronkorlik girdobidan qutula olmaydi. “Bagʻrida rahmat yomgʻirlarini olib keluvchi bulutlarni haydab

esadigan shamol bu gal boshqa bulutni olib kelmoqda edi. Ummon ustida u shu qadar zo'raydiki, balanddagi o'ttiz metrlik to'liqlarni hosil qildi, sohilga yaqin joylarda esa girdoblar ko'kka ajdar kabi sapchidi, millionlab baliqlar shu to'liqinda halok bo'ldilar, girdob ularni bir necha kilometr balandga ko'tarib, sohildan yuzlarcha chaqirim ichkariga-chorva maydonlariga olib borib tashladi. Shamol uchirayotgan qum zarralari mayda parchalarni shu zahoti ko'mib tashladi, kattaroq bo'laklar oldida esa qum uyula boshladi" [Sulton I. 2011, 87, 89].

Tafakkur sohiblari esa har bir ishning oqibatini o'ylab, hidoyat manzilini ixtiyor etadilar. Nosirlar ahli odamni tiriklik sarhadlarida aql hamda qalbning muvozanatiga rioya etishlikka, zakiylik bilan yaralish hikmatiga sodiq bo'lishlikka chorlaydilar.

"Kassandra tamg'asi" va "Boqiy darbadar" romanlari kompozitsion sathida assotsiativ motivlarni kuzatish mumkin. Har ikki adib genetika sohasidagi tajribaning olam-u odamga ziyoni xususida qayg'uradi. Oliy tuyg'udan mosuvo sun'iy odamni yaratish maxsus laboratoriyada hukumatning qattiq nazoratida olib boriladi. Andrey Krilsov va Ziyo professor olimlik salohiyatini gunohi kabiraga sarflagani, Atlantika ummoni, samodagi vaziyat ogohlikka da'vat etsa ham osiy banda halokatni anglamasligi, Yaratganga isyon qilishi yoritib boriladi. Mahfiy laboratoriyada mahbus inkubator ayol noma'lum jinsni dunyoga keltirsa, inson takomili markazida DNA halqalarida kaltakesak geni mavjud genom paydo bo'ladi. Har ikki usulda yaratilgan sun'iy mavjudot vatan, oila, ota, ona, bola yanglig' tushunchadan bebahra bo'lib, faqat jaholatga moyil edi. Yaratganning irodasiga isyon tarzidagi "kashfiyot"lar abadiy hukm, taqdirni rad etadi.

Irsiyatni chuqur bilishga intilish alaloqibat kibrga boshlaydi, tuproqdan yaralgan inson haddini bilmay shakkoklikka berilib, qat'iy muvozanatni o'zgartirishga ahd qilib, qahrga uchraydi. Romanlarda jonzot-u qushlar tasvirida ham ramziylikka ahamiyat qaratiladi. Boyqush Moskva maydonida bezovtalanib uchib, yoshlarning isyoni, mavjud nizomga qarshiligiga shohid bo'ladi. Uning oh-u fig'oni, oy yog'dusidagi iztirobi negizida vayronkor insonning yovuzligiga ishora qilinadi. Qora chumchuqlar sayramay, don yemay, ko'zlarini javdiratgancha nimanidir sabr bilan kutishida halokatdan ogohlik sadosi tinglanadi.

Ijodkorlarning qahramon umrining so'nggi onlari borasidagi tasvirida ham uyg'unlik kuzatiladi. Filofey kosmos, ya'ni samoda o'limga ro'baro' bo'ladi, osmondagi samolyotning halokati professor

Ziyoni ummonga g'arq etadi. Har bir voqeaning sodir bo'lish sababini yoritish jarayonida Alloh insonni samo, zamin, okeanda ham qat'iy nazoratda tutishi, jazoning qay makonda bo'lsa ham muqarrarligi ma'lum qilinadi. Odam o'zini olim-u fozil his etsa-da oniy lahzada barchasidan mahrum bo'lishi, amallari sarhisob qilinishini unutmazligi kerak. Genetikaning mahzanini puxta anglagan inson o'zining ibtidosi-yu intihosini tafakkur qilishga o'zlik qilib kibrga beriladi. Fan-texnika taraqqiyoti natijasida beqiyos "ixtiro" ga qodir inson afsuski, o'limga chora topolmaydi. Har qancha urinsa ham fano diyoriga rixlat etadi. O'lim farishtasi osiy bandani samo-yu ummonda bo'lsa ham mahv etadi, boisi qismatdagi bitikdan hech kim qutula olmaydi.

"Kassandra tamg'asi" romani xotimasida qish izg'irinida yetimxona ostonasiga tashlab ketilgan go'dak sasi eshitiladi, yolg'izlikka muhtalo inson himoyasiz, zaiflikda hech kim bo'lib qolaveradi. Bu tasvirdagi yetim go'dak holati ikki ma'noni ifodalaydi, ota-ona gunohi hosilasi bola hamda sag'irlik tamg'asi batamom mahv etgan nojins (iksrod)ning inson qavmiga begonaligi, bemisl jaholati ila umr intihosi (qish)ga ro'baro' bo'lishi oydinlashadi. "Boqiy darbadar" romanida sahroda bir banda yolg'iz ketib boradi. Bu usul falsafiy, estetik mushohadani teranlashtiradi, ya'ni o'z banda olamning mayda zarrasi bo'lib, darbadar kezib tiriklik sinovlarini boshidan o'tkazaveradi. Aslida inson kurrayi zaminda darbadar bo'lib, to'g'rilig-u egrilik, ezgulig-u johillik kabi sinovlarda toblanishi, borliq hodisotini qalbi shuuri ila uqishga intilishi, safari nihoyasida hashr maydonida hisob berishi ma'lum. U rahmat-u halovatni faqat imoni ila his etishi mumkin, o'zga vaziyatda esa besamar kezib, nomayi a'molini gunohlar bilan to'ldiradi.

"Har qanday asl badiiy nasrda shunday nozik, ko'z ilg'amas vositalar mavjudki, ular nutqni mukammal tarzda his qilish imkonini beradi" [Кожин. 1962. 26].

San'atkor tafakkur va taxayyul olamining boyligi qahramon sajiyasini, ruhiyatidagi tebranishni ta'sirli ifodalashga imkon beradi. Asar strukturasi voqealar sodir bo'ladigan makon keng ma'noda yo'lni qamrab oladi. U orqali ma'no ko'lamini teranlashib boradi. Yo'l qahramon harakatini rivojlantirishda muhim, taxayyuldagi istak, mayllar ro'yobida ham unga murojaat seziladi. Muallif maqsadini anglatuvchi asosiy ma'no nuqtalari uyg'unligida yo'l tasviri halqa yanglig' munosabatlarni mustahkamlab boradi.

Badiiy asar kishi ma'naviyatini boyitib, uning milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar borasidagi tasavvurlarini to'ldirib

boradi. Har bir davrning ijtimoiy, madaniy sathdagi yangiliklari adabiyotda tajassumini topadi. Zukko kitobxon badiiyat namunalari poetikasidagi o'zgarishlarni baholab, ob'ektiv va sub'ektiv omillarni sharhlab boradi. Ijodkor mazmunning salmog'i, umumlashmaning kengligiga e'tibor qaratib, so'z qudratini tuydirishga intiladi.

Badiiy voqelikni jonli yaratish hayotni teran o'rganish, olam haqiqatini his etishdan boshlanadi. O'z davridagi global masalalarni keng ko'lamda yoritish, yangi qahramon qismatini jonli, tabiiy yaratish san'atkordan diniy hamda dunyoviy bilimlarni puxta o'zlashtiribgina qolmay, ularni mohiyatni teran yoritishga sarflashida kuzatiladi.

XULOSA

Hozirgi kunda insoniyat olamning yaxlitligi ta'limotini idrok etmoqda. Globallashuv jarayonada kishi o'zligini saqlashi, milliy va umuminsoniy qadriyatni e'zozlashi darkor. Turli axborot xurujidan omon bo'lishda imon zirhi bilan quvvatlanish lozim. Borliq tilsimotidan voqif ko'ngil halovat-u osoyishga sazovor bo'ladi. Adiblar shaytanat izmidagi g'ofil kimsalar besamar umrini talqin etish asnosida tafakkur sohiblarini hidoyat-u razolatni muqoyasa etishiga imkon beradilar. Badiiy asarning falsafiy- estetik mohiyati, tarixiy, madaniy qatlamdagi o'rni o'zlashtirish asnosida muhim ahamiyat kasb etadi. Ijod namunasini qabul qilish ruh, ongga singdirish qismning mazmunini butun tarkibida tasavvur etishni taqazo qiladi. Muhimi, asar zimnidagi ma'nolar mahzanini idrok aylab, ijodkor badiiy niyatini to'g'ri anglashga intilish joiz.

ADABIYOTLAR

- Храпченко М. 1970. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. -М.
- Айтматов Ч.1995 Тавро Кассандры. М.Издательство.
- Султон И. 2011, Боқий дарбадар. Т. Шарқ.
- Кожинов В. 1962. Основы теории литературы. М.: Знание.
- Айтматов Ч, Шохонов М.1998, Чўққида қолган овчининг оху зори. Т. Шарқ.
- Ulug'ov, A. (2021). Stories of khayriddin sultanov. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(12), 295-305.
- Rasulova, U. Y. (2021). The pride of the nation. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 1685-1688.
- Жабборов, Н. (2021). Новая интерпретация образа великого Ибн Сины. in Library, 21(2), 143-149.

ARTISTIC INTERPRETATION OF HUMANITY, ORIGINALITY AND GENETICS

Umida RASULOVA¹

Abstract

Wordsmiths, the enchanters of language, introduced a fresh perspective and expression to contemporary prose, depicting life from various vantage points. They infused vitality into subjects and sought to communicate present societal issues to readers through a creative lens. Authors' exploration in the realm of art, adept incorporation of classical conventions and folklore, and drawing inspiration from global literature are yielding significant results. In recent times, Uzbek and Kyrgyz literature has acquired ownership of prose examples that align with the scientific and theoretical standards of world literature. Within the poetics of these literary works, a diverse array of characters representing various ages, professions, and worldviews has been crafted. This includes individuals such as children and adults, workers and servants, the foolish and the hermits, nameless heroes, and supernatural infants, each assigned specific roles and functions. Crucially, the piece delves into a profound comprehension of an individual's core, delving into both the virtues and flaws within their character. The novel places emphasis on providing a vivid artistic portrayal of the hero's introspection, highlighting the contrast between rebellion and disbelief. Moreover, it amplifies the motivation for the character to experience internal pain and suffering as a result of external actions.

Keywords: *novel, poetics, image, psyche, interpretation, genetics, expression.*

References

- Xrapchenko M. 1970. *Tvorcheskaya individualnost pisatelya i razvitie literatury*. – M.
- Aytmatov Ch. 1995. *Tavro Kassandry*. M. Izdatelstvo.
- Sulton I. 2011. *Boqiy darbadar*. T. Sharq
- Kojinov V. 1962. *Osnovi teorii literaturi*. M.: Znaniye.
- Aytmatov Ch, Shoxonov M. 1998. *Cho'qqida qolgan ovchining ohu zori*. T. Sharq.

¹ *Rasulova, Umida* - Doctor of Philology, professor. Alisher Navoi University of Uzbek Language and Literature.

Email: rasulovaumida12@gmail.com

ORCID ID: 0000-9762-4407

For citation: Rasulova, U. 2024. "Artistic interpretation of humanity, originality and genetics". *Uzbekistan: Language and Culture*. 1(2): 33-45.

- Ulug'ov, A. (2021). Stories of khayriddin sultanov. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 11(12), 295-305.
- Rasulova, U. Y. (2021). The pride of the nation. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1685-1688.
- Жабборов, Н. (2021). Новая интерпретация образа великого Ибн Сины. *В библиотеке*, 21(2), 143-149.